

O'ZBEKISTON OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI

Tarix fakulteti
O'zbekiston tarixi kafedrasи

MUSTAQIL ISH

Mavzu: Ashtarkoniylar sulolasining O'rta Osiyo
tarixida tutgan o'rni

Bajardi:

202-guruhtalabasi Abduxoliquov V.

Tekshirdi:

Ass.Mamarasulov D.T

Mavzu: Ashtarkoniylar sulolasining O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni

Reja:

- 1) Ashtarkoniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi
- 2) Ashtarkoniylar davrida o`zaro ichki nizolar
- 3) Ashtarkoniylar davrida ishtimoiy iqtisodiy munosabatlar

1601-yildan e`tiboran Buxoro xonligida hokimiyat ashtarxoniyalar (Joniylar) sulolasasi qo`liga o`tadi 150 yilcha (1601-1753) hukumronlik qilgan. Ashtarxoniyalar sulolasasi davrida Buxoro xonligida tinchlik, osoyishtalik bo`lmadi.

Xonlik viloyatida hukumronlik qiluvchi omillar va beklarning o`zboshimchaligi, markaziy hokimiyatdagи amaldorlar o`rtasidagi o`zaro kelishmovchilik va kurashlar mamlakatning tinkasini qurita boshladi. Buni ashtarxoniy sulolasidan Buxoro taxtiga ko`tarilgan 10 nafar xonlardan ikkitasining taxtdan og`darilib, to`rttasini taxt ustida o`ldirilgan ham yaqqol ko`rsatdi. Inqiroz o`zining yuqori palatasiga chiqgan XVII asrning 40-yilida Eron shohi Nodirshoh Buxoro xonligiga yurish qilib uni o`ziga bo`ysindirdi. Buxoro xonligida katta nufuzga ega bo`lib mang`it urug`ining vakili Muhammad Rahim 1747-yilda ichkilikbozlik va maishatbozlikka berilib ketti Abulfayzxonni so`ngra rasman xon deb (soxta xon) e`lon qilindi. Uning o`g`illari: Abdulmo`min va Ubaydullo sultonlarni o`ldirib, hokimiyatni o`z qo`liga oladi. M. Raxhim 1753-yilda o`zini Buxoro amiri deb e`lon qiladi. Shu sanadan boshlab Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb atala boshlandi. Amirlikda hokimiyat 1920-yilgacha mang`itlar sulolasasi qo`lid abo`ldi.

Shayboniyardan Abdulmo`min halok bo`lgandan keyin mamlakatda feodal o`zaro urushlar kuchayib ketdi. Eronliklar bu voqeani Shayboniyalar olgan viloyatlarni qaytarib olish uchun qulay fursat deb bildilar. Shoh Abbos sabzavor bilan mashhadni keyinroq esa Hirotni bo`lib oldi. Ba`lxga shohning yordami bilan uning gumashtasi hokim qilib tayinlandi.

Shimoldan, Toshkent rayonidan qozoq sultonni Tavakkal bostirib kirdi. Qozoq, mo`g`ul va qalmoqlarning katta kuchlari yordami bilan u Samarqandni bosib olib, Buxoroni sabt etishga harakat qilganida, mag`lubiyatga uchradi. Bu yurishdagi mag`lubiyat Tavakkalni to`xtatib qo`ya olmadi, biroq u Samarqand bilan Buxoro o`rtasidagi jangda qattiq yarador bo`lib, taxminana 1599-yilda Toshkentda vafot etdi.

Shayboniyalar davlatining amirlari Buxoroda istiqomat qilayotgan astraxanlik shaxzoda Jonibek sultonni xon qilib ko`tarishga qaror qiladilar; Jonibek sulton Abdullaxonning singlisiga uylangan edi, shu vajdan u shayboniyalar bilan qarindosh hisoblanardi. Jonibek unga taqdim etilgan taxtdan bosh tortadi. Shunda amirlar Jonibekning katta o`g`li Dinmuhammadnni xon qilib saylaydilar. Bu vaqtida u eroniylar qamal qilgan Obivarda edi. Biroq Dinmuhammad Buxoroga kelayotib yo`lda halok bo`ladi. Shundan keyin Buxoro amirlari uning ukase Boqiyumuhamedni xonlikka ko`taradilar, Jonibekning uchinchi o`g`li Valimuhammadni esa valiaxt qilib e`lon qiladilar va urf-odatga ko`ra, uni Balxga noib qilib yuboradilar. Shunday qilib, 1599 yildan boshlab Movarounnahrda ashtarxoniyalar, ya`ni astraxonliklar degan nomni olgan yangi o`zbek sulolasasi o`z

hukumronligini boshlaydi, bu sulolaning yana bir nomi “joniylar” ularning urug` boshlig`i Jonibekning nomidan olingan edi.

O`zbek qabila boshliqlarining in`om olgan “yurtlari” va oi olgan mol-mulkari bazasida yirik yer egaligining rivojlanishi ularni shu qadar kuchli va mustaqil yer egalariga aylantirdiki, Ashtarkon sulolasidan bo`lgan xonlar o`z vassallariga batamom qaram bo`lib qoldilar. Hatto, Jonibek oila a`zolarini xon qilib saylashning o`zi vassal amirlarining asosiy harbiy kuchdan iborat bo`lgan o`zbek qabilalari bilan bog`liq bo`lmagan odamlarni taxtga o`tqazish payida ekanligidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan xonlar amir va huqmron feodallar guruxiga kirgan oliy martabali musulmon ruxoniylarining roziligesiz va ularning yordamisiz o`zlariga mustaqil ish ko`rish imkoniyatiga ega emas edilar.

Boqiymuhammad 1605-yilda vafot qilganidan keyin, uning ukasi, Balk noibi Valimuhammad (1605-1611 yillar) taxtga o`tkazildi. Bir oz vaqt o`tgach, Buxoroda Valimuhammadga qarshi til biriktirilib Buxoro zodagonlari uning o`rniga Imomqulixonni (1611-1642 yillar) taxtga o`tqazishga qaror qildilar.

Valimuhammadxon suiqasddan har topgach, ikki o`g`lini olib, Eronga, shox Abbas panofiga qochib ketdi. Shox Abbas Valimuhammadxonga qo`ldan ketgan hokimligini tiklab olish uchun juda katta harbiy kuchlar berdi. Eron qo`shinlarining yaqinlashib kelayotganini ko`rgan Buxoro axli sarosimaga tushib qoldi. Lekin o`zbeklar shox qo`shinini tor-mor qilib, Valimuhammadni asir olib, o`ldirdilar.

Eronliklarga va Valimuhammadga qarshi kurashda Imomqulixonga Toshkent rayonidan kelgan qozoqlar yordam beradi. Biroq, tez orada Imomqulixonga o`z mulkini yain ittifoqchilari hujumlaridan himoya qilishga to`g`ri keldi. 1613 yilda Imomqulixon qozoqlarni yengib, Toshkentni qo`lga oldi, u yerga o`g`li Iskandarni noib qilib tayinladi. Lekin Imomqulixon Toshketdan chiqib ketishi bilan, o`lpon va yig`imlardan, jabr-zulimlardan toqati toq bo`lgan aholi qo`zg`olon ko`tarib, shaxzodani o`ldiradilar. Imomqulixon o`g`li uchun qasos olish niyatida. Toshkentni ishg`ol qilganidan keyin shaxarlarning qoni ot uzangiga chiqmaguncha qirg`in qilgani bo`lsin, deb qasam ichadi Toshkent bir oy qamaldan keyin zabt etiladi, buxoroliklar aholini shunday qilichdan o`tkazdilarki, hatto, Imomqulixonga qarashli qo`shin boshliqlari xondan begunoh odamlarni o`ldirishni to`xtatish to`xrisida iltimos qilganlarida, xon qasamimni buza olmayman deb javob beradi. Shunda Toshkent qonunshunoslari xon hazratlariga ot ustida hovuzga tushishlarini va o`lganlarining qoniga bo`yalgan hovuz suvi ot o`zangisigacha chaqishini aytadilar. Shundan so`ng xon ichgan qasamini bajo keltirib, shahar aholisini qirg`in qilishni to`xtatadi.

Imomqul hukumronlik qilgan davrda Ashtarkoniylar davlatiga, ya`ni Buxoro xonligi chegaralariga juda yaqinlashib qolgan qoraqalpoqlar bilan

bellashuvga to`g`ri keldi. Tarixchilar Imomqulxon qo`sishinlarining Qoratovda qoraqalpoqlarni tor-mor keltirganini tasvirlab, ular bilan bir qatorda qalmoqlarni ham tilga oladilar. Turk-mug`ul naslidan bo`lgan qalmoqlar yoki oyiratlar avval Sibir bilan Qashg`ar va Oltoy bilan Ila daryosi o`rtasida yashar edilar. Qalmoqlar XVI asrda g`arbga tomon siljib borib, qozoqlarga duch keladilar va o`rtada qonli urushlar bo`ladi. 1603-1604 yili qishda qalmoqlar Xorazimga birinchi daf a xujum qilganlar. Imomquli vaqtida qalmoqlarning Movarounnaxrga qarshi hujumlari kuchayadi. Ular kuchli ko`chmanchi xalq bo`lib, xon ularga qarshi bir necha bor yurish qiladi.

Ko`chmanchilar bilan olib borilgan urushlarda Imomqulining qo`li baland kelib, u o`z mavqeyini mustahkamlab oldi. Uning uzoq muddatli, ya`ni o`ttiz yildan oshiqroq hokimlik qilishi Buxoro xonligining ancha kuchaygan va rivojlangan davriga to`g`ri keladi. Imomquli feodallarning dushmanlik xurujlarini davf qilib kelsaham, lekin davlat hokimiyati faqat zohiran mustahkamlanganday ko`rinardi. Feodal yer egaligi rivojlanib, katta katta mulklar amirlar qo`liga o`tishi natijasida o`zbek feudal qabila zodagonlarining siyosiy ahamiyati ham kuchaydi. Viloyat qaysi qabilaning yurti bo`lsa, ko`proq sgu qabila amirlari viloyat hokimi qilib tayinlardi. Natijada, davlatning parchalanib parokanda bo`lishiga yordamlashadigan be bosh kuchlar ko`payadi, lekin Imomqulixon vaqtida bu hodisalar hali batamom rivojlanib etmagandi.

Imomqulining vorisi, ya`ni uning ukasi Nodirmuhammad (1642-1645 yillar) o`ta ketgan takabbur va mol mulkga uch bo`lib xalqqa zulm o`tkazishi yalpi norozilikning tug`ilishiga sabab bo`ldi. Uning xonlik davrining uchinchi yilda, qozoqlar Movarounnaxrga qilgan navbatdagি hujumlarida xo`jandgacha yetib bordilar. Nodirmuhammad qozoqlarni quvib yuborish uchun o`g`li Abdulaziz boshliq juda katta qo`sish yuboradi. Yurish vaqtida Abdulaziz Hujandda xon qilib ko`tarilgan edi. Nodir bundan habar topgach tezlik bilan Balxga jo`nab ketadi, Abdulaziz bo`lsa Buxoro tomon yo`l oladi, bu yerda zodagonlar uning xonlikka ko`tarilishini uzil-kesil ma`qulladilar (u 1645-yilda 1680-yilgacha hukumronlik qiladi). Nodirmuhammad boburiylardan Shox Jaxonga (1627-1658 yillar) murojaat qilib, undan madad so`raydi (temuriylardan Zahiriddin Bobur Hindistonga asos slogan va u yerda 1526-yildan 1558-yilgacha hokimlik qilgan. Bu voqeа tarixga “Buyuk mo`g`ullar” degan nom bilan kirgan). Shox Jahon Qobulga tez-tez hujum qilib, juda ko`p boylik to`plagan va asir olgan. Nodirmuhammaddan qasdini olish, qo`li baland kelsa boy-badavlat Buxoro viloyatini bosib olish niyatida o`z o`g`illari Murod Baxshi va Avrangzeb boshliq kuchlik qo`sish yuboradi. Nodirmuhammad Shox Jahonning o`g`illari va`da qilingan yordam o`rniga Balxni zabit qilish niyatida kelayootganliklaridan habar topgach, ularga qarshi chiqadi va Maymana yo`lida mag`lubiyatga uchrab, g`arbiy Eronga qochadi. Boburiylar qo`sishlari

yo`lda uni tor-mor qiladilar. Batamom yengilgan Nodirmuhammad Eronda shox Abbas II (1642-1667) panofiga sig`inib, unda ikki yarim yilcha istiqomad qiladi.

“Muqim xon tarixi” muallifining so`zlariga qaraganda, 1647-yilda Shox Jahon avlodlari Balxni zabit etganlar. Ular xalqni siqib shu qadar jabr-zulm qildilarki, viloyat aholisi o`z yurtini tashlab qocha boshladı. Ular Amudaryodan o`tib Movarounnaxrga tomon yo`l oldilar. Hindistonliklarning Balxdagi hokimligi ikki yil (Abdulazizzon ularga qarshi bosh ko`targuncha) davom etadi. Ayrim otryadlarning to`r t oy davom etgan jang va to`qnashuvlari natijasida o`zlarining asosiy tayanch joylaridan uzoqda bo`lgan Boburiylar qo`smini zaiflashib, ko`chmanchi o`zbeklarning qo`li baland keladi. Vayron qilingan mamlakatdagi ocharchilik va qattiq qish issiq iqlimga o`rgangan Hindistonliklar uchun halokatli bo`ldi. Shox Jahon lashkarlarini Hindistonga chaqirib olishga majbur bo`ladi, Balxni esa Erondan taklif qilingan Nodirmuhammadga topshiradi.

Balx taxtiga yana Nodirmuhammadning chiqishi uning o`g`illarini tashvishga solib qo`yadi va ularni birlashishga majbur qiladi. Abdulazizzon oldin u bilan dushmanlik qilib yurgan ukasi Subxonqulini Balxga noib qilib tayinladi. Shaxar zodagonlari va posbonlik qilib turgan askarlar u bilan bitimm tuzib, uni shaxarga kirgizadilar (1651 yilda), Nodirmuhammad bo`lsa makkani ziyorat qilish uchun ketayotganida yo`lda vafot qiladi. Oradan ko`p o`tmay, aka-ukalar o`rtasida yana adovat paydo bo`ladi. Abdulaziz Balxni Supxonqulidan tortib olish niyatida unga qarshi Muhammad sulton boshliq juda katta qo`sish yuboradi. Shaharni qirq kun qamal qilish vaqtida shahar atroflari shu qadar hayron bo`ldiki, Muhammad Yusuf mumshining so`zlariga qaraganda, “uy-joylardan asarham qolmagan” lekin Abdulaziz uzil-kesil g`alabaga erisholmay ukase bilan sulk tuzib, uni o`z merosxo`ri va Balx noibi deb tan olishga majbur bo`ladi.

1655-yilda Movarounnaxr Abulg`ozixon boshliq (1645-1663 yillarda xivaliklarning daxshatl xujumiga duchor bo`ldi. Xivaliklar Buxoro voxasiga bostirib kirib, Qorako`lni vayron qildilar va boy o`ljalar bilan qaytdilar. O`sha yili xivaliklar Qorako`lga yana hujum qilib, ko`p asr oladilar. Keying yillarda ham takrorlangan, hatto, uzoq Karmanani ham vayron qilgan, hujumlar oqibatida “Movarounnaxr viloyatlarining barchasi talanib, xonavayron bo`ldi, aholisi tarqatilib, parokanda qilib yuboriladi”. Xivaliklar yerni bosib olish uchun hujum qilmasdan, balki bosqinchilik maqsadida hujum qilganlar. Sababi Buxoro xoni xivaliklarni davf qilish uchun endi qo`sish to`plaid deguncha ular bosib olgan o`ljalarini olib, darhol orqaga chekinardilar.

1657-yilda Xiva xoni Abulg`oz Karmanaga yurish qilib, katta o`lja bilan qaytib ketayotganida Abdulaziz hujum qilib, uning otryadlarini tor-mor qiladi. Abulg`ozining o`zi esa havf ostida qolib, o`g`li Anushanining yordami tufayli asir tushmaydi. Xivaliklar mag`lubiyatga uchraganliklariga qaramay, harbiy

bosqinchilik yurishlari davom qilaveradi; ular 1658-yilda Vardonzeni talab, vayron qilishadi, 1662-yilda esa poytaxt shahar Buxorogacha etib keladilar. Abdulaziz Abulg`azi bilan sulk tuzganda xivaliklar Buxoro darvozasi oldida, Namozgohda turishgandi. Abulg`azi vafotidan keyin (1664 yili), uning o`g`li Anusha (1663-1687) Buxoro viloyatlariga hujum qilib, bostirib kelaveradi. Shunday hujumlardan birida Anusha poytaxt atrofidagi Jo`ybaragacha (jo`ybar xo`jalar istiqomad qilib turadigan qarorgoh) borib, uni talyaydi. Shu paytda Karmanada bo`lgan Abdulaziz Buxoroga madad berish niyatida shoshilib yo`lga otlanadi. U shaharga kechasi yetib boradi, ammo shahar darvozalari xivaliklar qo`liga o`tgan edi. Shaharga bostirib kirib, qattiq jang bilan Arkka yetib oladi, Ark esa bu vaqtida hali buxoroliklar qo`lida edi. Abdulazizning da`vati bilan Buxoro va uning atrofidagi aholi qurollanib, dushmanga qarshi bosh ko`taradi. Xivaliklar chekinadilar. Keyinchalik ular Buxoro va Samaqandga yana bir necha marta hujum qiladilar. Muhammad Yusuf munshining guvohligiga qaraganda, ular o`n sakkiz marta hujum qilganlar.

Xiva bilan uzoq vaqt davom etgan urushlar Movarounnaxrning umumiyligi iqtisodiy ahvoliga juda yomon ta`sir qildi va Ashtarkoniylar davlatidagi ichki ziddiyatlari kuchaytirib yubordi.

Xivaliklar bilan bo`lgan urushdagi muvaffaqiyatsizliklar Buxoroda jiddiy hokimiyat inqilibiga sabab bo`ldi. Keksayib, kasalmand bo`lib qolgan Abdulaziz mudofaa ishlarini uyushtirishga ojizlik qiladi. Subxonqulining ochiqdan-ochiq taxdid solishidan ta`sirlangan Abdulaziz taxtdan vos kechadi va Makkaga ketib, o`sha yerda vafot etadi. Abdulaziz ketgach, Subxonqli xonlikka ko`tarilidi (1680-1702 yillar).

Anushaxonning navbatdagi hujumi vaqtida og`ir ahvolda qolga Buxoro xonligidagi vaziyat Balxdagi feodallar o`rtasidagi janjal-ixtiloflar va yarim mustaqil o`zbek qabilalari orasidagi g`alayonlar yanada keskinlashdi. Balx hokimligi uchun Subxonqli o`g`illari o`rtasidagi kurashda odam o`ldirishlar va to`ntarilishlar bo`ldi, bu ishlarda o`z qabila lashkarlariga suyangan mahalliy amirlar faol qatnashadilar.

Xivaliklar o`z hujumlaridan birida (1680-yilda) Buxoro atroflarigacha borib, Karmana va Vardonze viloyatlarini vayron qilib, Samarqandni ishg`ol etdilar, Samarqand shahar zodagonlari hutbada Anushaxon nomini tilga olib toatibodat qilishga va uning nomini yozib oltin, kumush tangalar zarb etishga rozilik bildiradilar, shu bilan birga Subxonqulidan norozi bo`lgan Buxoro amirlarining kattagina qismi o`z qabilalariga qaytib ketib, unga qarshi g`alayon ko`tarishdi.

Subxonqli Badaxshon hokimi qatag`on qabilasidan bo`lgan otaliq Mahmudbiy yordami bilangina xivaliklarni Samarqandda quvib chiqara oldi. Lekin

ular ketgandan keyin ham qirg`in bo`laverib vayronaga aylangan viloyatlardagi aholining ahvoli bundan ham harob bo`ldi.

Samarqand viloyatiga Anushaxonning bostirib kirishiga yo`l qo`yan va uni o`zlariga xon qilib ko`targan samarqndliliklardan Subxonqli shavqatsiz o`ch oldi.

Shu orada Subxonqulining o`g`li, Balx hokimi, Siddiq Muhammad ustidan ig`vo qilib yozilgan ma`lumotlar kela boshlaydi; uni otasiga qarshi bosh ko`tarish niyatida deb ayblaydilar. Subxonqli 1681—yilda Balxga qo`shin tortib ketadi. Isyon ko`targan o`g`li otasining qo`shinlarini qal`a devorlari va burchlaridan turib o`qqa tutadi, lekin otasi uning gunohini kechish haqida so`z berib, maktub yuborganidan keyin, shahardan otasiga peshvoz chiqadi; ular bir-birlari bilan diyord ko`rishganlaridan so`ng ikkovlari Balxga kirib boradilar. U yerda Subxonqli o`g`lini qamoqqa olishga hamda uni isyon yo`liga kirishga da`vat etgan a`yonlarini qiyab o`ldirish haqida farmon beradi. Qamoqda Siddiq Muhammad ham halok bo`ladi, aftidan, otasining buyrug`i bilan o`ldirilgan bo`lsa kerak.

Subxonqulining Balxdaligida foydalanib, Xiva xoni Anusha yana Buxoro chegaralaridan o`tib, hamma yoqni vayron qiladi, katta o`ljalar olib Xivaga qaytiib ketadi shundan keyin biro z vaqt o`tgach Anushaga qarshi suiqasd uyushtiriladi, aftidan, bunda Buxoro qatnashgan bo`lsa kerak. Anushani o`z a`yonlari 1686-yilda qo`lga tushurib, ko`zini o`yib ko`r qilishadi. Uning o`rniga o`g`li Arangmuhammadni (1686-1688) xon qilib ko`tarishadi. Subxonqli Xiva tomonidan xavf-hatar yo`q deb ko`nglini to`q qilgandan so`ng, Xurosonga yurish qilmoqchi bo`ladi, buni unga maxsus elchilar yuborgan Boburiylardan Avrangzeb taklif qilgan edi. O`zbeklar Bolomug`rob qal`asini zabit qilishadi (bu hozirgi Kushkadan shimoliy sharqda), lekin huddi shu paytda Arang Subxonqli viloyatiga bostirib kirib, poytaxtgacha yetib brogan va uni qamal qilgan. Subxonqli hamma qo`shinlarini Xurosonga yuborgan edi, shu sababli otaliq Mahmudbiydan madad so`raydi, u qo`shinlari bilan kelib xivaliklarni orqaga qaytishga mabur qiladi. Arang Xivaga qaytiib kelgach o`ldiriladi. Subxonquliga uning nomiga xutba o`qilib, pul zarb qilina boshlaganligi haqida habar yo`llaydilar. Xivaliklarning iltimosiga ko`ra, Subxonqli Xorazmni idora qilish uchun o`z noibini yuboradi. Shunday qilib, Xorazm yana Buxoro xonligiga vaqtincha qo`shib olingan edi.

Xonga ko`rsatgan xizmatlari uchun otaliq Mahmudbiy Balx va Badaxshonga hokin qilib tayinlanadi. Mahmudbiy Balxda ma`lum darajada tinchlik o`rnatgandan keyin Badaxshonning kattagina kattagina qismini o`z qo`lida saqlab turgan Yorbekka qarshi kurash boshlaydi. Bu kurashga mashhur Badaxshon qizil yoqud-la`l konlarini Buxoro xazinasi foydasiga ishlatalish uchun Buxoro amaldorlarining yuborilishi baxona bo`ladi; Yorbek amaldorlarningyo`lini to`sadi.

Mahmudbiy 1692-yilda yurish qilib, Yorbekning poytaxti G`uzgon (Fayzobod) shahrini qamal qiladi, biroq uni zabit etolmaydi, shundan keyin yoqt konlarining ikki yillik daromadining oldindan olib, shu bilan qanoatlanadi va Yorbek bilan sulk tuzib, Balxga qaytib ketadi. Yorbek to`la hokimiyatga ega bo`lib qoldi, Ashtarkoniylar bilan esa faqat ma`lum vassallik munosabatlarini saqlab qoldi, lekin bungaham ko`pincha rioya qilmas edi. U badaxshonga ellik yil hokimlik qildi (1706 yoki 1707-yilda vafot etdi); Badaxshon Mirlar sulolasining nasal nasabi Yorbekdan boshlangan bo`lib, bu sulola XIX asrning 80-yillariga qadar hokimiyatni idora qilib kelgan.

Balxda Mahmudbiy Buxorodan butunlay mutaqil holda hokimlik qiladi. Uning shavqatsizligi tufayli tevarak-atrofdagi o`zbek qabilalari orasida bir necha marta qo`zg`olon ko`tarildi. Isyonlarni boshlovchi asosiy kuchlar ko`p sonli qurama qabilasining amirlari edi. Mahmudbiy o`z obro`sini mustahkamlash niyatida, Subxonquliga murojaat qilib, yosh nabirasi Muhammadmuqim sultonni Balxga noib qilib yuborishni iltimos qilishga majbur bo`ladi. Lekin Balx zodagonlari aholining madatkorligiga suyanib, Balxga Solihxojani hokim qilib ko`tardilar; Solihxo`ja qadimi darvishlar xonadini Muhammad Porso avlodlaridan edi. Buxorodagi qo`ramalarning vakillari otliqning bir tomonlama-separatistik harakatlari haqida Subxonqulini ogohlantirdilar. Subxonqli qudratli vassalini bir o`zi uddalashga ojjizlik qilganidan, Badaxshon hokimi Yorbekni unga qarshi qo`zg`atadi. Mahmudbiyning yurti kunduzda Badaxshon jangovar tog`lik askarları paydo bo`ladi. Mahmudbiyham dushmanga qarshi qo`shin tortdi. Uning yo`qligidan foydalanib, Subxonqli juda katta qozoq hamda qoraqalpoq qo`shinlari bilan Balx devorlari ostiga kelib, uni qamal qila boshladi hamda tevarak atrofdagi joylarni vayron qilib, mol-mulkini taladi. Solihxo`ja Mahmudbiyni yurishdan chaqirib oladi, u Balx atrofidagi rayonlarda yashovchi buluvjilar bilan arablarni yordama davit qiladi. Subxonqli sulk tuzishga majbur bo`ladi. Shundan keyin feodallar o`rtasida bo`lgan o`zaro janglar, turkmanlar isyon, Termizdagı qo`ng`irotlar qo`zg`oloni, Badaxshonning dushmanligi, katta yillarda ochiqdan-ochiq bosqinchilik qilishlar bir zamonalr gullab yashnagan, boy Balx viloyatining tinch hayotini izdan chiqarib yubordi.

Ashtarkoniylar sulolası (1601-1752)

Boqimuhammad	- 1601-1605
Valimuhammad	- 1605-1611
Imomqulixon	- 1611-1642
Nazarmuhammadxon	- 1642-1645
Abdulazizzon	- 1645-1681
Subhonqulixon	- 1681-1702
Ubaydullaxon II	- 1702-1711

Abulfayzxon	- 1711-1747
Abdulmo'min (soxta xon)	- 1747-1748
Ubaydulla sulton (soxta xon)	- 1748-1752

Subxonqulixonning so`ngi hokimlik yillarida hamma yoqda tartibsizlik hokum surardi. Balx yerlarida ayrim o`zbek qabilalari o`rtasida shiddatli kurash ketayotgan edi. Qipchoqlardan yengilgan ming qabilasi Erondan madad so`raydi, qizli boshlar Shibirg`onga bostirib kiradilar; Shibirg`on bilan Mayman ming qabilasining meros yurti edi. Balx viloyatida o`ta ketgan beboshlik hukm surardi. Shu vaqtida Subxonqulixon vafot etib (1702 yil), taxtga uning o`g`li Ubaydullaxon o`tiradi. Shu fursatdan foydalaniib, Ubaydullaxonning jiyani Muhammadmuqim o`zini Balxning mustaqil xoni deb e`lon qiladi, shahar amirlari va zodagonlarining qistovi bilan Mahmudbiyga murojaat etib, Balx qurolli kuchlarini tashkil qilishni o`z zimmasiga olishni undan iltimos qiladi.

Ashtarkoniylar davlatining tobora tanazzulga yuz tutib parokanda bo`layotganligi XVIII-asr boshlarida cho`qqisiga yetadi. Ubaydulla II (1702-1711 yillar) hokimlikda mutloqlikka intildi-yu, lekin oqibatda o`z amirlari qo`lida qo`g`irchoq bo`lib qoladi, davlatni to`qqiz yil idora qilib, uni batamom vayronaga aylantiradi. Ubaydullaxon feodal tarqoqlikka barxam berishga intilib, Balxda hokum surib turgan separatistik harakat tarafdoqlari duch keladi, chunki Balxda Muhammadmuqim o`zini Buxorodan mustaqil xon deb e`lon qilgan edi. Muhammadmuqimning orqasida Qunduz yurtidagi o`z qatag`on qabilasiga suyangan qattiq qo`l otaliq Mahmudbiy madadkorlik qilib turardi. Keyinroq, 1706-yilda Mahmudbiy Muhammadmuqimni o`ldirib, o`zini Balz xoni deb e`lon qildi. Shunda Ubaydulla Mahmudbiyga qarshi qo`shin tortib boradi, lekin usyonkor Balxni o`ziga bo`ysudira olmaydi.

Ubaydullaxonning butun xonlik davri isyonchi vassallar bilan beto`xtov jang qilishda o`tdi. U goh yuz qabilasi qo`zg`olon ko`targan Samarqandga yurish qilar, goh Xisorga mahalliy yuzlarga qarshi qo`shin tortar, goh Termizga taslim bo`lgan Mahmudbiyga qo`shin yuborardi va hokazo. Bu yurishlarga ko`pincha amirlarning o`zaro feodal janjal-nizolari va ayrim o`zbek qabilalari o`rtasidagi urushlar bahona bo`lardi. Masalan, Ubaydullani Xisorga yurish qilishga tortgan otaliq Muhammadrahimbiy edi. Otaliqning Xisor yuzlariga shaxsiy adovatidan chiqqan va uning o`zi bosh bo`lgan bu urush to`la mag`lubiyat bilan tugadi. Xisor aholisiniинг hammasi buxoroliklarga qarshi qo`zg`aladi. Buxoroliklar qochishga majbur bo`lishdi, Xisorliklar buxoroliklarni quvib borib, ularning lagerlarini talaydilar. Muhammadrahimbiyning o`zi Samarqandga qochib ketadi.

Termizga qarshi yurishnni ham Ubaydulla Muhammadrahimbiyning maslahati bilan qiladi va Termiz noibini vazifasidan ozod etadi. Yurti Termiz viloyati bo`lgan qo`ng`irot qabilasi darg`azab bo`ladi. Lekin yangi hokimning o`zi

naymanlardan bo`lib, Termiz viloyatida yashayotgan naymanlardan tarafдорлari ko`p edi. Ular Amudaryonig narigi soxilidan Maymudbiyni chaqirtirib kelib, juda yaxshi mustahkamlangan Termizni unga topshirishadi. Mahmudbiy bilan birga kelgan ko`chmanchilar qishloqlarni talab, xonavayron qila boshlaydi, 1705-yilda ularga qarshi yuborilgan Buxoro qo`shinini Muhammadbiy yer bilan yakson qilib tashladi.

Shahrisabzda kenagaz, mang`it, jo`g`i va boshqa qabilalar g`alayon ko`taradilar (bu qabilalar manbalarda o`ng va so`l tomon qabilalari deb atalardi). Xon isyonkor Mahmudbiyga qarshi birgalikda harakat qilish uchun ularni o`z tomoniga ag`darib olishga harakat qiladi. Oqsoqollar tuxvalar bilan mukofotalangandan keyin, Terrmzga qarshi yurishda qatnashishga va`da beradilar. Lekin ular va`da bergen bo`lsalar ham xon qo`shiniga qo`shilmaydilar.

Nihoyat, Ubaydullaning o`zi Shaxrizabzga yurish boshlaydi. U isyon ko`targan qabila boshliqlarini to`plab, ularning bir qismini o`zi bilan Balxga yurish qilishga ko`ndiradi. Ubaydulla qo`shinlari bilan Amudaryodan o`tib, Balxga yetib boradi va uni qamal qiladi (1707-yil).Qatag`on qabilasining Mahmudbiyga yordam berishdan chalg`itish uchun xon Shaxrisabz o`zbeklaridan tuzilgan lashkarlarni Qunduzga (shu qabila yurtiga) hujum qildiradi.Ubaydullaxon Balxni uzoq vaqt qamal qilib turgan keyingina zabit qila oladi. Mahmudbiy qochadi, Balx aholisining boshiga esa qattiq bosqinchilik va har xil jabr-jafo toshlari yog`iladi. Kenagas, mang`it va jo`g`i qabilalarining qilgan hiyonati uchun jazolashni Ubaydullaxon Shaxrisabz viloyatini idora qilish uchun o`z tomonidan tayinlangab xitoy-qipchoqlar amiriga topshiradi, unga Shaxrisabz yurtin zabit etishga vakolatini ham topshirgan edi. Xitoy-qipchoqlar Shaxrisabzga yurish qilib, jangda yengiladilar.

Feodallar o`rtasidagi janjal-nizolar va o`zbek qabilalarining bir-biri bilan kurashi yetmaganday, sirdaryo yoqasidagi cho`llarda yashovchi ko`chmanchilarning hujumlari bo`lib turadi. Markazi Ili vodiysida joylashgan kuchlik qalmoq davlati ko`chmanchilarga kun bermaydilar. Qalmoqlarning harakati qozoqlar bilan qoraqalpoqlarning Toshkent devorlari ostiga qochib borishlariga sabab bo`ladi; Toshkent mustahkam qal`adan ibora bo`lib, o`sha zamonlarda, Turkiston va uning atroflari “Ubaydullanoma” muallifining so`zlariga qaraganda, qozoqlar qo`lida edi. “Ubaydullanoma” da ma`lumot berilishicha,”...qozoqlar va qoraqalpoqlar qabilasi bexisob kofir qalmoqlar qo`shinida vahimaga tushib, azaldan yashab kelayotgan yurtlarini tashlab, Toshkent qal`alaridan o`zlariga panox topgan edilar”. Samarqand va Buxoroda qalmoqlar Samarqand viloyatiga ham bostirib kelishlari mumkin, degan xavf-hatarlar paydo bo`ladi. 1709-yil may oyida Ubaydullaxon Samarqanga qo`shin tortib ketadi. Bir ozdan keyin qalmoqlar qozoq vaqoraqalpoqlarning ovullarini tor-

mor qilib, o`z manzillariga ketishibdi, degan habar olingach, yurishni davom etirish foydasiz bo`lib qoladi.

Samarqandda xon qo`shinidagi o`zbek, nayman va saray qabilalari o`rtasida to`qnashishlar bo`ldi, bu to`qnashuvlarga qabila boshliqlari-amirlarham aralashadi. Saraylar naymanlar amiri Ne`matulla Dodhoni badarg`a qilishni talab etdilar. Nayman amirining takabburligi boshqa hamma amirlarni joniga tekkan edi, uning bu kekkayishlarini xonning unga bo`lgan iltifotining zo`rligidan deb bilardilar. Juma kunlaridan birida amirlar norozilik bildirish yuzasidan hammalari xonga salom berishga kelmadilar. Samarqandda g`alayonlar boshlandi. Bu g`alayon to`g`risidagi habar Buxoro mehnatkashlarining bosh ko`tarishga bir turtgi bo`ldi. “Buxoroliklar o`rtasida shunday g`alayon va beboshliklar ko`tarildiki, ular nazarida xuddi qiyomat-qoyin sodiq bo`lganday bo`ldi”, -deydi o`sha zamon tarixchisi. harakat hukimron sinflarga qarshi qaatilgan edi. Hamma boy-badavlat shaharliklarni vahima bosadi. Shahar boshliqlari devor burchlarinimustahkamlab, darvozalarga posbonlar qo`yadilar. Hukumatni ko`rgan chora-tadbirlari orqali harakat bostirilgan edi.

Ubaydullaxon Buxoroga qaytib qarasa “xonga xarbiylarning dushmanligi hechkim uchun sir bo`lmay qolgan ekan”. Balxda yana Mahmudbiy ochiq isyon ko`taradi. Uni bostirish uchun yuborilgan qo`shin Qarshiga qadar yetib bordi, xolos. Amirlarning bir-birlari bilan raqobati, ularning xonga dushmanligi, maanfatlarining birligi hamda Mahmud bilan urush qilishga ra`ylari yo`qligi hammasi bir bo`lib, Ubaydullani Mahmudbiy bilan yarashishga va shu bilan birga aqalli zohiran Balxga nisbatan o`z suveren huquqlarini saqlab urushga majbur etadi.

Feodallarning Ubaydullaga dushmanligi uning mutlaq hokimlikga intilishidan edi. Ubaydulla o`z hokimiyatining mustahkamlash uchun qabila zodagonlarini chetlashtirib, hamma ishlarni o`zi tayinlaydigan va unga qaram oddiy kishilar qo`liga topshirishga harakat qiladi. To`raqulbiyni inoq mansabiga mindirib, oliy qushbegi vazifasiga tayinlangani vaunga parvonachi unvonini bergenligi, ayniqsa, katta noroziliklarga sabab bo`ladi.

Xon darvishlar yer egaligini cheklashga harakat qiladi va ta`siri zo`r jo`ybar xo`jalari bilan to`qnashadi, chunki ularga soliqham solmoqchi bo`lgandi. Shu bilan u qudratli darvishlar jamoasining madatkorligidan o`zini mahrum qilib qo`yadi.

Ubaydullaga qarshi suiqasd uyushtirildi. Natijada, xon 1711-yilda o`ldirilib, saroyi talon-taroj qilinadi. Ubaydullaning ukasi Abdulaziz (1711-1747 yillar) taxtga o`tqazildi, tez orada u amirlar qo`lida qo`g`irchoq bo`lib qoladi. Hokimiyatni qudratli Javshan qalmoq o`z qo`liga oladi, u o`ldirilganidan keyin

hokimiyat oliy qushbegiy Abdulabiyxo`ja qo`liga o`tdi, Abdulaziz xonlik davrining so`nggi yillarda esa hokimiyat Muhammadhakimbiy otaliq qo`lida edi.

XVI asrda Abdullaxon zamonida Movarounnaxrn ni siyosiy bir butun davlat qilib bog`lab tigan zaif aloqalarham XVIII asr boshlarida uzilib ketdi. Endi davlatning tushkunlikka uchragani tamomila aniq-ravshan ko`rinib turardi. Farg`ona XVIII asr boshidayoq aloxida hokimiyat bo`lib olgan edi. Bu yerda hokimiyatni Chodak qishlog`ida (Chustdan 40 kilometr sharqda joylashgan) istiqomad qilib turuvchi huj`alardan iborat darvishlar jamoasining vakillari o`z qo`llariga olgan edilar, bu yerda darvishlar ayniqsa ko`p va birlashgan edilar. O`zbeklarning ing qabilasidan bo`lgan, o`zini Chingizzon avlodni deb hisoblovchi Shoxruhbiy 1710-yilda shayxlar hokimiyatini ag`darib tashladi. Shoxruhbiy asos slogan mahalliy Ming sulolasi XIX-asrning birinchi yarmida deyarlik butun Sirdaryo xavzasini va Yettisuvning bir qismini o`z qo`liga oladi. XVIII asr boshlarida Shoxruhbiy Ho`qand qishlog`I o`rniga bino qilgan Qoqand shahri yangi tuzilgan davlat poytaxti bo`ladi.

Balx ham Buxorodan ajralib ketdi; keyinchalik bu yerda goh Ashtarkoniylardan Nodirmuhammad avlodlari, goh har turli o`zbek shaxzodalari hokimlik qilib turardi. Badaxshonda Yorbek sulolasi qaror topadi. Xorazm yana Buxorodan tamomila mustaqil bo`lib oldi.

Mang`it qqabilasidan bo`lgan, Abdulazizdan poytaxt otalig`I degan unvon olgan Muhammadhakimbiy hamma otaliqlarning boshlig`I bo`lib, irodasi bo`sh, zaif xon zamonida qattiq qo`l hokim bo`lib oladi. Uning hokimligi hamma o`zbek zodagonlarining umumiyloroziligidagi sabab bo`ldi. Xonning obro`sni qolmadidi. Abdulazizdan norozi bo`lgan o`zbek amirlari, hatto, uni o`ldirib Buxoro taxtiga Xiva xoni Sherg`ozini o`tqazish maqsadida unga qarshi suiqasdham tashkil qildilar, biroq suiqasd oshkor bo`lib, aybdorlar qatil qilinadi. Yana o`sha Sheg`ozining kirdikorlari bilan bo`lsa kerak, Shahrisabz hokimi, kenagas qabilasining amiri Ibrohimbiy hokimiyatni Muhammadhakimbiy qo`lidan tortib olish niyatida, 1722-yili Samarqandda o`z kuyovi (boshqa bir rivoyatga qaraganda, Sheg`ozining amakivachchasi), Xiva shaxzodasi Rajabni xon qilib ko`tardi. Ibrohibiyning o`zi uning yonida Amirulumar, ya`ni amirlar amiri bo`lib qoladi.

Rajabxon, unga ko`p amirlar qo`shilgandan keyin, kattakon qo`shin bilan Samarqadda chiqib Buxoro tomon yo`l oladi; u Karmanaga yaqin borganda bag`rin va boshqa o`zbek qabilalari unga qo`shiladi. Biroq bunday tarafdorlarni soni uncha ko`p bo`lmaydi, chunki Pyotr I ning elchisi Florio Benevenining so`zlariga qaraganda, “o`zbeklardan hech kim urushga otlanishni xoxlamagan” .

Rajabxon Buxoroni zabit etolmaganidan keyin, qozoqlardan madad so`rab, zabit qilinadigan viloyatlarda ko`chmanchilarga katta-katta o`ljalar va`da qilgan. Qozoqlar bu vaqtda boshlaridan juda og`ir kunlarni kechirayotgan edilar. Qalmoq

(jung`ar) xoni xon toychji Tsevan rabtan 1723-yil baxorida kuchli qo`shin boshida qozoqlarni manzillariga hujum qilib, ularni tor-mor keltiradi. Qozoqlar Sirdaryoning janub tomoniga qochib o`tishadi, lekin bu yerda ularni har bir qadamda ochlik va qashshoqlik ta`qib qilib turardi. Qozoqlar shunday halokat yoqasida turganlarida Movarounnahrdagi boy-badavlat viloyatlarga yurish qilish haqidagi taklifni jon deb qabul qiladilar. Och qolgan, qashshoqlashgan ko`chmanchilar butun o`tov va chorvalari bilan Samarqand viloyatiga yetib keladilar, undan butun Miyonkol bo`ylab Buxoro tumanlarigacha yoyilib ketadilar. Rajabxon va unga qo`shilgan amirlar nima qilishni bilmay qoldilar. Muhammadhakim bilan Abulazizxon poytaxtda jim o`tiraverishdi.

Ko`chmanchilar yetti yil mobaynida hech qanday qarshilikka uchramay, butun Zarafshon vodiysida hammani talon-taroj qiladilar. Ularning chorva mollari o`troq aholining yer va bog`u rog`larini poymol qildi. Gullab-yashnab turgan joylar cho`lga aylandi. G`alla, meva, sabzavot hosili kamayib ketdi. Aholi xavf-xatar kamroq joylarga qochib ketdi, ko`plari yo`lda ochlikdan qirilib, halok bo`lishdi, tirik qolganlarini esa ko`chmanchilar asir qilib oldilar.

Nihoyat, Abulazizga yaqin a`yonlari Muhammadhakimbiyni Buxorodan chetlashtirishga xonni ko`ndirishadi, otaliq Qarshiga jo`natib ketadi. Biroq omadi kelgan bitta muvaqqat hokim o`rniga bir necha yangilari paydo bo`ldi. Hasis amaldor va mansabdorlar bozorlarni o`z qo`llariga olib, ayrim molar savdosotig`ini o`zlariga monopoliya qilib olishga harakat qiladilar. O`sha zamon tarixchisining iborasi bilan aytganda, “Buxoro shahrining hamma bbrchaklarida va tumanlarida zo`rlik do`konlari ochilgan edi”. Abulfayz o`z saroyida ertadan kechgacha aysh-ishrat va vaxsh bilan band bo`lgan. Viloyat va ayrim tumanlarning hokimlari ular ustidan hech qanday nazoratni yo`qligidan o`zlarini mustaqil tutar edilr. Beneveniy, xon qalmoq va rus qullaridan tuzilgan o`z gvardiyasigagina ishonishi mumkin edi, deb ta`kidlab o`tadi.

Buxoroning og`ir iqtisodiy va siyosiy axvolda qolganidan Eron istilochisi Nodirshoh (1736-1747 yillar) foydalanib, Buxoroni o`ziga bo`ysundiradi.

Nodirshoh usmonli turklar ustidan g`alaba qilib g`arbda havfsizlikli ta`minlab olgach, Qobul va Qandaxor bilan birga Avg`onistonni ham o`ziga bo`ysindirib (1737-yil) o`z sultanatini Sharqqa ham yoydi. U Loxurgacha borib, “Boburiylar” armiyasini ham tor-mor qiladi, 1739-yil martda ularning poytaxti Dehlini zabt etib, talon-taroj qiladi. Avg`onistonga yurish vaqtida 1736-1737 yillarda Nodirshohning katta o`g`li Rizoquli Andxun, Oqcha va Shibirg`onni ishg`ol etadi. Balx o`zini himoya etishga harakat qiladi, lekin u ham tez orada noiloj taslim bo`ladi. Nodirshoh g`alabaga ko`proq yevropacha tashkil qilingan artilleriyava ayrim hollarda (masalan, Andxudning olinishi) Nodirning yerlarda

yashovchi ham qabilalari, afsharlarning faol yordami tufayli erishdi, chunki afsharlar Eron qo`shinlari yaqinlashib kelgan vaqtda ular tomoniga o`tib oldilar.

Rizoquli Amudaryoning so`l qirg`og`idagi o`zbek viloyatlaridan ko`pchiliginis ishg`ol qilganidan keyin, otasining buyrug`i bilan daryodan o`tib o`n ikki minglik lashkar bilan Qarshiga yo`l oladi. U yerda Muhammadhakim eronliklarning yaqinlashib kelayotganidan habar topgach, shaharga mang`it qabila atryadlarini kiritib, shahar hamda uning atrofidagi hamma aholini dushman zARBASINI qaytarishga safarbar qiladi. Rizoquli avval aholi qo`lidagi g`allani tortib olish uchun Qarshi atrofidagi hamma tumanlarga lashkar yuboradi, so`ngra shaharni qamal qilishga kirishadi. Eronliklar tomoniga o`tgan G`uzor hokimi Boboxon Rizoquli huzuriga o`zbeklardan iborat salkam uch minglik otryad bilan kelib, uning qo`shinini kuchaytiradi. Qamalda qolganlarning ahvoli juda og`irlashib, shu bilan Muhammadhakim Buxoroga Abulfayzxondan madad so`rab iltimosnama yuboradi. Abulfayz Buxoro, Miyonqol va Samarkand viloyatidagi qo`shinlarni olib qarshiga yo`l oladi va qamaldan chiqqan Muhammadhakim qo`shini bilan birgalashib eronliklarga qarshi jangga kirishadi. Rizoqulinining qo`shini Buxoro armiyasining faqat to`rtdan biricha kelishiga qaramay, eronliklarning miltiq o`qi va yengil falkonet artilleriyasining afzalligi bu jangni eronliklar foydasiga hal qiladi. Buxoro armiyasi tumtaraqay bo`lib qochadi: Abulfayz bilan otaliq zo`rg`a Qarshi qal`asiga kirib, yashirinib olishadi. Rizoquli qal`ani qurshab oladi, qamalga mashina va polaxmonlar qo`yadi, lekin o`n besh kunlik qamaldan keyin, Buxoro yerlariga yangi dushman buxoroliklarning ittifoqchisi, Xiva xoni Elbars katta qo`shin bilan kirib kelganligidan habar topgach, Rizoquli shoshilinch ravishda Abulfayz bilan sulx tuzib, otasining armiyasiga qo`shilish uchun Amudaryoning narigi betiga o`tib ketadi. Abulfayz o`z poytaxtiga qaytadi, Muhammadhakimni Qarshida qoldiradi, Elbars esa ittifoqchisining eronliklar bilan sulh tuzganini eshitib, Xivaga qaytib ketadi.

1740-yilning boshida Nodishoh Movarounnaxrga yana yurish qilmoqchi bo`ladi. Avval u Balxni ishg`ol qiladi. Bu yerda uning farmoni bilan tayyorlab qo`yilgan oziq ovqat va to`p-to`pxonalarni barjalarda Amudaryodan pastga tomon jo`natib, o`zi 1740-yil sentyabr boshlarida ponton (qayqlarni birlashtirib yasalgan) ko`prikda Amudaryoning soxiliga o`tadi.

Buxoro talig`I Muhammadhakimning yosh va shuhratparast o`g`li Muhammadrahim, Nodirshohning Balxga kelganini eshitgach, otasining ruxsati bilan undan fotiha olib, Qarshidan chiqib Karki yonida shoh qo`shinlarini quvit yetadi; Muhammadrahimni shoh juda yaxshi kutib olib o`z qarorgohiga qoldiradi. Nodirshohning tobora ilgarilab borayotganini ko`rib, qo`rqib ketgan Abdulfayz Qarshida yuzi yomotliq qilgan otaliqni zudlik bilan chaqirib oli, Nodirshohni qahridan tushurish va davlatni vayron qilishiga yo`l qo`ymasligi uchun, uning

huzuriga elchi bo`lib boorish vazifasini topshiradi. Muhammadhakim shoh qarorgohiga yetib borib, Nodirga ko`pdan-ko`p sovg`a-salomlar yetkazadi. Qabul vaqtida Nodirshohning xonlik ahvoli to`g`risidagi bat afsil savollariga otaliq ochiq-oydin javob qaytarib, Buxorodagi voqealarining hammasini hikoya qilib beradi, buni elchi qilib yuborgan Abulfayz xon hokimligini, davlatning yalpi ichki holati nochorligini, aholining noroziligini juda hunuk bo`yoqlar bilan tasvirlab, o`zining Nodirshoh xizmatiga tayyorligini ishor qiladi. Muhammadhakim katta vakolatlar bergen Nodirshoh yorliqlarini yoniga solib, endi Abulfayz elchisi sifatida emas balki shoh vakili sifatida Buxoroga kirib boradi.

Otaliq poytaxtga yetib kelgacha, xon huzuriga bormaslikni eng behatar yo`l deb hisoblab, Mir Arab madrasasiga tushadi va atrofiga qurolli posbonlar qo`yadi. Uning buyrug`I bilan hamma bozorlar, ko`cha-kuy va machitlarga yuborilgan jarchilar, shoh armiyasining yaqinlashib kelayotganligi munosabati bilan kimda o`z shaxsi va mol-mulkining behatarligi haqida biron savol tug`ilsa, hammalari otaliq huzuriga borsinlar, undan hammalari tegishli izoh oladilar, deb halqqa e`lon qiladilar. Mir Arab madrasasiga halq yog`ilib ketadi. Otaliqning hatti-harakatlari shahar aholisi o`rtasida uni mashxur qilgan bo`lsa, uni hiyonatda ayblagan poytaxt saroy doiralari va zodagonlarining g`azabini qo`zg`atadi. Uni xon huzuriga chaqirtirib, keyin umumkuchlar bilan halqni qo`zg`atib, haromi “dinsiz shialar”ga qarshi bosh ko`tarishga harakat qilindi, lekin Muhammadhakim xon huzuriga bormadi. Shundan keyin Abulfayzning o`zi otaliq huzuriga Mir Arab madrasasiga boradi, Muhammadhakim salom-alik uchun unga peshvoz chiqqanida, uni qo`lga olib, o`ldiramiz, deb qaror qilishdi. Lekin otaliq o`z soqchilariga madrasaga yaqinlashgan xon soqchilariga qarab o`q uzishni buyuradi. Abulfayz sarosimaga tushib, saroyiga qaytdi; uni Nodirshohga taslim bo`lishdan boshqa iloji qolmadidi. Abulfayz a`yonlari bilan shohni kutib olish uchun Talipoch darvozasidan chiqib ketdi, uning ketidan otaliq ham o`z soqchilarini bilan Namozgoh darvozasidan chiqib o`sha tomonga ravona bo`ladi, uni turli aholi tabaqalari kuzatib boradilar. Yilning o`rta yerida u xonni kuzatib borayotgan soqchilarni quvib yetdi-da, unga qo`sildi, bundan xon hiyonat qilgan otaliq bilan uchrashganida, bir tomonidan, butun odob va itoat qoidalariga rioya qilingan bo`lsa, ikkinchi tomonidan, xon iltifoti va mehir-shavqati ham zohiran bajo keltirildi. Ular Nodirshoh bilan Buxoro yonida, zarafshon daryosining qirg`og`idagi Chorbakr manzilida uchashdilar; Nodir Abdulfayzxonga iltifot qilib, uning huquqlarini tan oldi. Abulfayzxon shoh qarorgohida o`n ikki kun turganidan keyin Buxoroga qaytadi. Qarindosh-urug`lik iplari, Ashtarkoniylar honadoni bilan turkman Nodirni bir biriga bog`laydi: shohning o`zi Abulfayzning qizlaridan biriga uning jiyani esa boshqa qiziga uylanadilar. lekin Buxoro ma`murlari va aholisi bilan Nodirshoh faqat Muhammadhakim orqali munosabatda bo`ladi, Muhammadhakimga shoh to`la

ishonch bildiradi. Otaliqqa shoh qo`shini uchun naqt pulga 200ming harvor bug`doy va yem-hashak ytkazib berish vazifasi topshiriladi. Shoh qo`shinini to`ldirish uchun Buxoro qo`shinidan o`n ming otliq askar olinadi: bu otryadga boshchilik qilishni Nodirshoh otaliqning o`g`li Muhammadrahimga topshiradi. Otaliqning ukasi Muhammaddoniyolbiy Karmanaga hokim bo`ladi. Muhammadhakim Buxoroda ilgari oliy davlat mansabida Nodirshohning ishonchli amaldoro bo`lib qoladi; Abulfayzxon butunlay unga qaram bo`lib qoladi.

Nodirshoh Buxorogda o`z hokimiyatini mustahkamlab oliy Xorazimga yurish qiladi.

Abulfayzxon o`zbek davlatining qadimiylar dushmanlari bo`lgan Eron shohlarining olivhimmatini va suverenitettini tan olganligi, aslida, Ashtarkoniylar ssulolasining mustaqil hokimlik davri tugadi degan gao edi. XVIII asr boshlarida tarkib topgach ijtimoiy va siyosiy sharoitlarda Ashtarkoniylar birinchilikni yangi hokimlarga-xon taxtini o`z qo`llariga olgan o`zbek qabilasi zodagonlariga hamda mang`it qabila boshliqlariga berdilar.

Buxoro Eron shohining tobe mulkiga aylantirilgandan keyin butun davalat hokimiyati aslida uning noibi otaliq Muhammadhakim qo`lida bo`lib, keying yillarda otaliqqa ham eroncha tarzda amiri kabir (buyuk amir) unvoni berilgandi. Muhammadhakim 1743-yilda vafot qilganidan keyin, davlatning turli qisimlarida o`zbek amirlari isyon ko`tardilar. Ibodulloxitoy (xitoy-qipchoqlarda) qo`zg`oloni butun Miyonkolni o`z ichiga olib, to poytaxt devorlari tagigacha yetib bordi. 1745-yil aprel oyining ohirlarida buxoroliklar shahdan tashqarida, shayx Bahoviddin Naqishbandiy mozori yonida, urf-odat tusiga kirgan ko`klam bayrami “Qizil gul” (“guli surx”)ni bayram qilish uchun shahar va uning atroflaridan yuz minglab kishilar bu yerga bir oyga yig`ilishib kelganlarida, Ibodulla fursatdan foydalanib, Buxoroga yopirilib kirib, juda ko`p o`lja oldi va ko`p kishilarni asir olib ketdi. Amirlardan birining lashkarlari isyonchilar bilan shiddatli jang qilganlaridan keyingina o`lja va asirlardan katta qismi qaytarib olindi.

Nodirshoh vafot qilgach, otaliq Muhammadhakimning o`g`li muhammadrahimga bir to`da sinalgan akarlaridan berib, uni 1745-yili (boshqa ma`lumotlarga qaragandan 1747-yil) Buxoroga yuboradi. Marvda Muhammadrahim Rizoqulining o`g`li va noibi bir to`da qizil boshlar top-topxonalari bilan, Chorjo`yda esa turkmanlar qo`sildilar. Bu askarlar bilan Muhammadrahim Buxoroga keladi, unga u yerda amirlar amiri (amirul umaro) unvoni berildi, o`zi otasidan meros qolgan poytaxt yaqinida G`ozibodon qishlog`iga joylashadi. Muhammadrahimning qarindoshlari va tarafdorlari oliy davlat vazifalariga tayinlanga edi. Muhammadrahim ularga suyanib, xonlik poytaxtida o`z mavqeini mustahkamlab oldi va eronliklar yordami bilan isyonchilarni bostirishga kirishadi. Qattiq jangdan so`ng Ibodillaxitoy

Miyonkoldan haydalib Shimolga Toshkentga qochadi, keyinchalik u yerda o`ldiriladi, Shahrishabizda “o`ng va so`l tomon qabilalari”ning isyonи bostiriladi. Nodirshohning o`limi vaqtida (u 1747-yilda o`ldirilgan edi) Muhammadrahim mustahkam va itoatgo`y qo`shinini tuzib oladi. Uning qo`mondonlari unga sodiq kishilardan saralab olingan edi. Endi u, otasiga qaraganda Ashtarxoniyalar davlatiga to`la huquqli hokim bo`lib olgan edi.

Nodirshoh o`lgandan keyin biro z vaqt o`tgach Muhammadrahim Abulfayzni o`ldirdi. Abulfayz o`lgandan keyin Amudaryoning so`l qirg`og`idagi viliyatlar va uning markazi Balx Buxorodan ajralib ketadi, keyinchalik Farg`ona ham ajralib, unda o`zbeklarning qabilasining urug` boshliqlari hokimiyat tepasiga chiqib oladilar. Muhammadrahim saroy ahillari va “qizilboshlar” madatkorligiga suyanib Abulfayzning to`qqiz yashar o`g`li Abdulmo`minni taxtga o`tqazib qo`ygandi, lekin u (davlatni) “o`z hukmi bilan idora qila” boshladi. Oradan bir yil o`tgach, 1748 yili o`sha Muhammadrahimning o`zi “(bu) chingizlar urug`idan bo`lgan mazlum to`rani zindonga tashlab yo`q qilib yuboradi”. Abdulmo`min halikatidan keyin Buxoro hokimi deb e`lon qilingan ubaydulla (Abulfayzni o`g`li) davlatda hech qanday rol o`ynamaydi. Muhammadrahim zodagonlar va ruhoniylarning rizoligini olib, 1753-yilda amir unvoni bilan Boxoro taxtiga o`tiradi.

Yangi, Mang`itlar sulolasining hokimligi shu taxlidda boshlangan edi. Bu sulola 1920-yilda halq revalitsiyasi natijasida ag`darib tashlanadi.

Ashtarxoniyalar vaqtida doimiy feodal urushlar mamlakatni bayron qiladi. Feodal tarqoqlik ba`zi vaqtarda shu darajaga borib yetdiki, xon hokimiysi faqat nomiga bo`lib aslida mamlakat xo`jayinlari ko`p sonli feodallar edilar. Kuchdan ketgan markaziy hokimiyat irrigatsiya sistemasini saqlab turish uchun yetarli g`amxo`rlik qlmasdi. Yirik feodallarga kelganda, ular faqat o`zlari manfaatdor bo`lgan tumanlarnigina ma`lum darajada obod qilishga intiladilar. Feodall tarqoqlik va ular o`rtasida to`xtovsiz kurash ketayotganda dexqonlar ommasi ayniqsa shavqatsiz ekspluatatsiya qilib, xonavayron bo`ladilar. Tez-tez ocharchilik butun-butun tumanlar va viloyatlarga yoyilib turganligi dehqonlar ommasining qashshoqligidan darak beradi, bu haqda tarix manbalarda bir necha bor ma`lumot berilgan.

Yerni sug`orib dehqonchilik qilish aholi xo`jaligining asosiy tarmog`i edi. Ilgari nimalar ekilgan bo`lsa , XVII va XVIII asrning birinchi yarmida ham shu ekinlar ekilardi. Bug`doy, jo`xori, arpa, shuningdek, moy olinadigan kanop va kunjut ekilardi. Sabzavotchilik bilan bog`dorchilik juda rivoj topgandi. Sanoatbob ekinlardan paxta juda ko`p ekilardi. Pillachilikham keng rasm bo`lgandi: Xivada XVII asrda har yili 3000 pudga yaqin ipak hosili olinardi; Buxoro xonligida pillachilik bo`shroq rivvojlangan bo`lib, buxoroliklar Xivadan ipak olib turardilar.

Movorounnaxrda feodal yer egaligi, bundan oldingi asrlarda bo`lgani singari, davlat yer egaligi (amloq) , xususiy (mulk) va vaqt yer egaligi formalarida mavjud edi. P. P. Ivanovning tekshirishlariga qaraganda, “ yirik yer egalari bu yerlarda o`z hususiy xo`jaliklari bilan shug`ullanmas edila”, bu yerlarni koradalarga ijara ga berish bilan tasarruf qilardilar. Yer maydoninig kattaligi jihatdan eng ko`p davlat yer egaligi formasi edi.davlat yerlaridan dehqonlar foydalani, xiroj tariqasida yer rentasi-soliq to`lab turishardi, shu yerda o`zbek qabilalariga yurt qilib in`om qilinadigan fond o`rniga hamishlatilardi. Har xil harbiy va fuqaro shaxslarga foydalanish uchun beriladigan suyurg`ol va tanholar ham shu fonddanolinardi. Bunday in`omu exsonlar xaddan ziyoda ko`p rasm bo`lganidan bevosita davlat tomonidan akpluatatsiya qilinadigan dehqon eholisi band qilgan yer maydoni shu qadar kamayib ketdiki, xazinaga xiroj va boshqa soliqlar tobora kam tushadigan bo`lib qoldi.

XVII asrda yer in`om qilish rasmi yanada ko`paydi. Undan oldingi XVI asrda bo`lgani singari, XVII asrda ham suyurg`ol bilan bir qatorda yangi xil tanho in`omi keng rasm bo`ldi. Bu ikkala temirning ma`nosi-shartlari yen in`om qilish, lekin ularning tarqalish doirasi bir xil emas. Ahamiyatli lekin oz tekshirilgan bir manbaga (XVII asr “Ushur va xiroj yerlarini tekshirish haqidagi traktat”) ko`ra shaxzodalar, ulamolar va saidlarga yer in`om qilingan bo`lsa, u suyurg`ol deb, harbiylarga, ya`ni harbiy boshliqlarga in`om qilingan bo`lsa, tanho deb atalardi. Hofiz Tinish Buxoriyning (XVI-XVII asrlardagi) “Abdullanoma” sida, 959-yil (1552-yili) voqealarri haqidagi hikoyada ham huddi shunday deb ko`rsatigan. Bu ikkala termin O`rta Osiyoda to XIX asrgacha davom etib kelgan. Tanho XVII asrdan boshlab o`ziga hos benefitsiya, ya`ni yer in`om qilish tariqasida keng rasm bo`lgan. Tanhodor yer egasi bo`la olmaydi, uning egaligi shu yerni ishlatuvchi dehqonlardan o`z foydasiga yer egasi bo`la olmasdi, uning egaligi shu yerni ishlatuvchi dehqonlardan o`z foydasiga yer solig`i olish huquqigina iborat bo`lard,xolos. Shundan keyin in`om qilingan yerda yashovchi aholi huquq jihatdan tanhodordan (tanho egasidan) mustaqil bo`lib, unga nisbatan krepostnoy qaramlik munosabatida bo`lmasdi. Lekin aslida,, qoida tariqasida va to`g`ridan-to`g`ri unga qaram bo`lib qolardi. Feodal yer egaligi kengaygan va shu munosabat bilan markaziy davlat hokimiyati zaiflashgan sari o`zbek zodagonlarining dexxon aholis ustidan haqiqiy hokimligi oshib bordi.

In`om qilingan suyurg`ol va tanho yerlar ba`zan juda katta bo`lib, yer egalari ko`pinch axon avlodlari bo`lgan. Shartli in`om bilan bir qatorda hakimlarga alohida xizmati singan ayrim shaxslarga, shuningdek, yirik ruhoniylarga ham xonlar yer mulki berar edilar. Shunday in`om qilingan yerlar ko`pincha har qanday soliqlardan ozod qilinib, davlat majburiyatidan ozod bo`lgan yer egaligiga (mulki surri holisga) aylanardi. Mulk yerlarda yashovchi dehqonlar shaxsan erkinlikdan

mahrum bo`lmasalar-da lekin yer egasidan tanho yerdagidan ko`ra yanada ko`proq qaram bo`lib qolar edilar.

XVII asrda yerning tanho va mulk sifatida in`om qilinib berilishi orqasidan katta-katta yer boyliklarining to`planish jarayoni yanada kuchayib, bu hol Aleksey Mixaylovichning elchisi Pazuxinga Buxoro xonligiga “hamma qishloqlar harbiylarga va boshqa har xil mansabdorlarga in`om qilib berilgan”, deb yozishiga sabab bo`lgan. Shu sababdan, uning yuzlariga qaraganda, xon xazinasiga qaraganda juda katta zarar yetgan. Shartli in`omlarga ham, ba`zan juda katta mulklarga ham egalik qiluvchi o`zbek urug`-aymoqlaridan bo`lgan zodagonlar qo`liga ko`proq yer-suv to`planardi.

XVII asrda va XVIII asr boshlarida davlat mulki hisobiga xususiy mulk egalar qo`lidagi feodal mulklar ko`payadi. Bu haqda bizgacha yetib kelgan yer suvga taalluqli hujjatlardan ko`ramiz, bu hujjatlardan xonlarning davlatga qarashli yerlari hususiy kishilarga (ayniqsa, yirik feodallarga, davlat devonxonasiagi saroy amaldorlariga) sotganligi va yer egalariga soliqdan darxonlik berilgani ko`rsatiladi. Shu bilan birga mulkning uchdan ikki qismi davlatga tekinga berilib, yer egasining qo`lida qolgan uchdan bir qismi hamma soliq va majburiyatlardan ozod qilinardi. Yer bila birga suv va sug`orish inshootlarining hammasi yer egasi ixtiyoriga beriladi.

Yerni feodallar o`z qo`llariga olganliklari natijasida dehqonlarning ularga qaramligi kuchayib boradi. Ye-suv sotiganda yoki boshqa biron o`zgarish bol`ganda faqat yer emas, shu yerda yashovchi dehqonlarham yer egasi qo`lidan boshqa qo`lga o`tardi. Lekin agar shu tekshirilayotgan davrga taalluqli hujat, qo`lyozma va boshqa manbalarga qarab hokum qilinadigan bo`lsa, ayrim hollarda yuqori tabaqa ruhoniylar v axon oilasining a`zolari xondan iltimos qilib, qochib ketgan dehqonlarni zo`rlik bilan qaytarib keltirishadi. Zamindor amirlar dehqonlarni ish kuchi o`rnida ishlatardilar.

Shayboniylar va Ashtarxoniyalar davlatida yuqori tabaqa muslimon ruhoniylari, shuningdek, darvishlar jamoasiga boshliq bo`lib turgan so`fi shayxlar (eshonlar) feodallar orasida alihida mavqega ega edilar.

Xonlar, amaldorlar va boshqalarning turli diniy muassalar (machid, madrasa, qabriston, xonaqo) foydasiga berilgan va bizgacha yetib kelgan ko`pdan-ko`p vasiyatnomalari shu ko`rsatadiki, butun-butun tumanlar va ulardagi o`nlarcha qishloqlar, ekin ekiladigan yerlar, tegirmonlar, uy-joylar, karvonsaroylar, do`konlar va hokazolar muslimon va ruhoniylarining ayrim tabaqalari qo`liga o`tib ketgan. Vaqfga in`om qilingan va xon in`om qilgan yerlardan tashqari, darvish eshonlarning yer boyliklari o`sha zamonlarda keng rasm bo`lgan yer sotib olish hisobidan ham ko`payib brogan.

Jo`ybar ho`jalari qo`lidagi katta-katta yer va mulklar ayrim obro`li eshonlar qo`lida ko`p mablag` to`planganidan darak beradi. Xo`ja Sa`dning o`g`li va merosxo`ri xo`ja Tojiddinning (1645-yilda vafot qilgan) mulklari ayniqsa katta edi. “Matlab ut-Tolibnin” muallifining so`zlariga qaraganda, Tojiddinning Buxoro, Samarqand, Toshkent, Andijon, shahrisabz, Miyonkol, Qarshi, Qorako`l, Chorjo`y, Hisor va Balxda 1000 yer mulki yoki 50 chorbog` va mevazorlari bo`lgan. U juda ko`p yangi mulklar barpo etgan, ulardan eng kattasi Buxoro viloyatidagi Xasanobod mulki bo`lib, undan har yili 1000 man g`alla daromad olib turardi. Uning behisob yilqilari, qo`y va tuyalari bore di. Tojiddin ho`jaligida 500 g`ulom (qul) ishlardi.

Yuqorida aytib o`tilganidek, yerning katta qismi hali na dehqonchilik, na shahar hayoti bilan tanish ko`chmanchi o`zbek qabilalari-chorvadorlarga yurt qilib berilgandi. Forma qihatdan, yurt jamoa-qabila mulki bo`lib, unda yer egasi va uni tasarruf qiluvchi ayyrim shaxs yoki qishloq jamoasi egalik qilmasdan, balki butun qabila yoki uning bir bo`lagi egalik qilardi. Urug`-qabila yer egaligi tartiblari urug` biylarining mehnatkash ko`chmanchilarni ekspluatatsiya qilishini niqoblab turuvchi faqat tashi forma edi, xolos. Yurt yerini haqiqatda tasarruf qiladiganlar, behisob chorva molari uchun eng yaxshi yaylovlarni o`z qo`llariga kiritib olganlar shu urug` biylari edi. Biroq, o`zbek urug`-qabilalarining o`troqlik turmushga ko`chish jarayoni juda tezlik bilan o`tdi. Aftidan, XVII asr oxirida va XVIII asrda o`troqlikka ko`chish jarayoni ommaviy tus olgan bo`lsa kerak. Chunki shu vaqtarda hozirgi O`zbekiston teretoriyasida o`zbek qabila va urug`-qabila guruhlarining nomi bilan atalga: Qo`ng`irot, Mang`it, Nayman, Durman, Mesit va shunga o`xshash juda ko`p qishloqlar paydo bo`lgan.

Qabila boshliqlari biylar va ularning askarlari o`troqlikka ko`chish jarayonida ilgari hamma qabilaga qarashli bo`lgan, shuningdek, azaldan dehqonlar kelgan yerlarni o`zlariniki qilib, zamindor bo`lib olishdi. Ular xondan in`om olish, xon va boshqa mulkdorlardan yer sotib olish yoki tog`ridan-to`g`ri birovlarning yerini bosib olish yo`li bilan zamindor bo`lib oladilar.

Oddiy ko`chmanchilarni ham o`z ichiga olgan feodal munosabatlarning rivojlanish jarayoni XVIII asrda yanada kuchaydi.

Hunarmandchilikning rivojlanishi savdo aloqalarining rivojlanishiga sabab bo`ldi, XVII-XVIII asrlada ko`p shaharlarda karvon saroylar qurilganligi bundan dalolat berib turadi. Garchi buyuk geografik kashviyotlar O`rta Osiyoning iqtisodiy ahvoliga manfiy ta`sir qilgan bo`lsada, bu davrda O`rta Osiyoning atrofdagi mamlakatlar bilan savdo aloqalari kuchayadi. Buxoro va Xiva elchilari va O`rta Osiyo savdogarlarining savdo karvonlari bilan birga Moskva hamda qo`shni sharq mamlakatlariga, qozoq cho`llariga, Sibirga, no`g`oylar yurtiga va boshqa mamlakatlarga borardilar. Buxoroga u mamlakatlardan ham elchilar kelib turardi.

Xitoy va Hindiston bilan qizg`in savdo-sotiq ishlari davom etdi. Xitoydan ko`proq ipak gazlamalar (kamka va boshqalar), chinni idish-oyoqlar, dori darmon, choy keltiriladi; Hindistondan qimmat baho toshlar, marvarid, doka, zarbop, matolar, zar ip, bo`yoq, upa-ellik va hokazolar keltirilardi. Hind savdogarları Buxoroga kelganlarında u yerda uzoq va istiqomad qilib turishardi. XVII asrda Buxoroda butun boshliq hindlar mahallasi va uning o`z oqsoqoli bo`lgan. Xitoy va Hindiston mollari Buxorodan Moskvaga va G`arbiy Yevropaga olib borilardi. XVII asrda O`rta Osiyo tashqi savdosida Moskva davlati tobora hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lib bordi. Taxminiy hisoblarga ko`ra, O`rta Osiyo bilan Rossiya o`rtasidagi yalpi savdosof foydasi har yili 100 ming so`m chamasida bo`lgan.

XVII va XVII asrlarda O`rta Osiyoda tabiiy boyliklarni qazib chiqarish juda past darajada bo`lgan. Olatovda rux qazib chiqarilganligi to`g`risida ma`lumotlar bor; selitra qazib chiqarish va undan porox ishslash ancha keng yo`lga qo`yilgan. Qimmatbaho toshlar, asl shpinel, feruza va boshqalar o`lpon tariqasida xon xazinasiga keltirib topshirilardi. Badaxshondagi mashhur qizil yoqt konini qazib ishslash (aslida qizil yoqt emas, asl shpinel toshining a`lo navlari qazib chiqarilardi) davlat monopoliyasi edi. Ishlab chiqarish kuchlari ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanmaganligi, iqtisodiy aloqalarning bo`shligi XVIII asrning birinchi yarmidagi rus mushoxadachilarining so`zlariga ishonilsa, feodal tuzumga xos xonlarning ta`qiqlash tadbirlari kon sanoati ishlarining rivojlanishiga to`sinqinlik qilgan.

Samarqand va Buxoroda a`lo nav yozuv qog`ozlari ishlanardi, bunday qog`ozlarni ishlab chiqarish usuliga Abdulazizzon (1645-1680 yillar) davrida erishilgan edi. Hunarmandchilik ham, savdo ishlari ham asosan alla qachon shaharlarga kelib o`troqlikka ko`chgan tub joy halq qo`lida to`plangan edi.

Shahrning hunarmandchilik sanoati, jumladan jamiyat hukumronlari iste`mol qiladigan turli qimmat baho buyumlar tayyorlash nisbatan ancha yuqori darajada turardi. Biroq, ishlab chiqarish texnikasi va badiiy qiymati jixatidan bu buyumlar kamdan-kam, istisnolar bilan O`rta Osiyo ustalarining avvalgi asrlarda hozirlangan buyumlardan ancha past darajada edi.

Davlat hamma xon urug`ining mulki hisoblanar, uning a`zolari sultonlar deb, ular tomonidan saylangan urug` boshlig`i esa xon deb atalardi. Xonlik taxtiga o`tirish huquqi asosan urug`ning kattasiga berilardiyu, lekin bu tartib ko`pincha buzilardi, o`z syuzereniga-xonga nisbatan o`zini mustaqil tutgan va u bilan nizoda bo`lgan eng qudratli sultonlar ham o`zlariga xonlik unvonini taqib taqib olardilar.

Davlat bir necha yirik bekliklarga, ular esa o`z navbatida yanada maydarоq amloklarga bo`linardi.

Ashtarkoniylar davlatiga kirgan o`zbek qabilalari xon hokimiyatida o`z mustaqilliklarini ma`lum darajada saqlab keldilar. Qabila boslliqlari xonlardan

amirlik, ya`ni knyazlik unvonlarini olib (bu “no`yon” degan mug`ul unvoniga tamomila to`g`ri kelardi), biron mansabga ko`tarilardilar. Keying yillarda o`zbek amirlari ko`pincha davlatga hukumronlik qilayotgan xonlarga nisbatan muhim rol o`ynay boshladilar. Amirlarning roziligesiz xonlar hech qanday ish qila olmasdilar. Amirlar mustahkam urug` va qabila aloqalariga suyanganliklari xon hokimiyati uchun juda xavfli bo`lardi, ular o`z qabilalarining yurtiga borib olgandan keyin esa jazo yoki o`ch olishdan butunlay xoli bo`lardilar, chunki butun bir qabilaga qarshi urush ochishga har bir xon jur`at qilavermasdi. Ko`pincha amirlar kuchlik sultonlar va xonlar davrida muvaqqat hokimiyatni o`z qo`llariga olardilar. O`zbek sultonlari obro`sni zo`r amirlar oldida laganbardorlik qilar va xon hokimiyatiga qarshi separatik intilishlari va faol harakatlari shu amirlarga suyanardilar. Shunday qilib, xon Temuriylardan bo`lgan biron hokim hamda uning qarindosh-urug`lari va vasallari bilan hisoblashish o`rniga, hatto ko`proq o`zbek qabilalarining tinib-tinchimas amirlari bilan hisoblashishga majbur bo`lardi.

Movarounnaxni zabit qilishdan ancha oldin qaror topgan tartib-qoidaga muvofiq xon saylashda sulton va amirlar qatnashardilar. Shart-sharoitga qarab ularning xon saylashga qatnashuvchi ba`zan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lardi, ba`zan esa xo`ja kursinga qilinardi. Qadimiyo`g`ul-turk urf-odatiga ko`r axon saylanganda uni oq namatga solib ko`tarilardi. Bu marosimni yangi xonning eng yaqin qarindoshlari, eng mo`tabar amirlar, shuningdek, darvishlar uyushmasining vakillari o`tkazishardi. Eski yo`l hayotidan meros qolgan ba`zi bir urf-odatlar ham saroy rasm-rusmlariga kiritildi. Qabul marosimlari va kengashlar vaqtida, saroyda o`tkaziladigan tantanali yig`inlarda faqat katta amaldorlargina emas, hatto, o`zbek qabilalarining oqsoqollari ham qat`iy mansabga qarab o`rin olishardi.

O`cta Osiyoda cho`l urf-odatlari yuqori davlatchilik formalari bilan duch kelib, sobiq ko`chmanchilar orasida feodal munosabatlar mustahkamlangani sari ular bu formalarni o`zlashtirib bordilar.

Feodal yer egaligining rivojlanishi va o`zbek feodal aslzodalari qo`lida katta-katta yer boyliklarining to`planishi aslzodalar ahamiyatini shu qadar kuchaytirib yubordiki, XVII asrdan boshlab xon hokimiyati ilgarigi mavqeining katta hissasidan mahrum bo`ldi. O`zbek feodallari uchun ashtarxoniyalar qlay edi, chunki ular o`zbek qabilalari bilan bog`liq bo`lmajanlaridan, O`cta Osiyo aholisi orasida yetarli darajada tayanchliri yo`q, edi. Bu hol markaziy hokimiyatning ahamiyatini yanada ko`proq pasaytirib, feodal tarqoqlikni kuchaytiradi. Ashtarxoniyalar sulolasidan bo`lgan ba`zi bir xonlarning (masalan, Imomqulixonning) hokimiyatni markazlashtirish va ba`zi bbi feodallarni bo`ysundirish uchun qilgan harakatlari qulay fursatlardagina qisman muvaffaqiyat qozondi.

Mamlakatni larzaga keltirgan to`xtovsiz feodal urushlar, hokimiyat tepasida turgan sulola vakillari o`rtasidagi hokimiyat uchun olib borilgan o`zaro urushlar va kurashlar, ayniqsa XVII asr o`rtalarida Nodirmuhammad hokimligi vaqtida urushlar, shuningdek, tashqi dushmanlar bilan olib borilgan behuda urushlar, jumladan, Nodirshohning hammayoqni vayron qilgan yurishi, bularning hammasi bir bo`lib, Buxoro xonlarining obro`sini tomomila tushirib yubordi. XVIII asrning birinchi yarmida feodal tarqoqlik cho`qqisiga yetdi, xon amirlari qo`lida – o`zbek qabila boshliqlari qo`lida qo`g`irchoq bo`lib qoldi. Amirlar haqiqatda o`z yurtlarining mustaqil hokimlari bo`lib oldilar. Ular qo`shinlariga qarshi yurish olib bordilar, hujum qiladilar, ular bilan o`zlari mustaqil sull tuzadilar. Bu amir hokimlardan ba`zi birlari, masalan, bir necha o`n yillar davomida Samarqandni idora qilib turgan. Yalangtushbiy, Mahmudbiy qatag`on, otaliq, Rahimbiy va boshqalar o`zlari boshliq bo`lib turgan qabilalarning harbiy kuchlariga suyanib, butun davlatda, shuningdek, uning ayrim viloyati hayotida ham katta rol o`ynadilar. Xon urug`I a`zolari o`rtasidagi amloqlarga bo`linish o`zrnini endi ayrim qabilalar o`rtasidagi amloqlarga bo`linish oldi.

Buxoro xonligi Ashtarkoniylar davrinining oxirlarida markaziy hokimiyatdan butunlay mustaqil bir qancha qabila mulklaridan tashkil topgandi.

Buxoro xonligida Temuriylar va Shayboniyardan meros qolgan, lekin ba`zi bir o`zgarishlarga uchragan murakkab davlat boshqarmasi mavjud edi. Amaldorlar pog`onasida birinchi o`rinni, otaliq ya`ni xonning amakisi yoki murabbiysi egallardi. XVII asrning hujjalarda u birinchi vazirlik vazifalarini bajarar edi. XVIII asrda tuzilgan mansablar jadvaliga muvofiq, u yana mamlakatni sug`orish ishlariga rahbarlik qilardi: “Samarqanddan to Qorako`lgacha muqaddas Buxoro daryosi (Zarrshon) suvini taqsimlardi”. Otaliqdan keying ikkinchi o`rinda devonbei xiroj to`plash ishlarini idora qiluvchi va “daftarlar”, ya`ni soliq ro`yxatlarini tuzuvchi moliya noziri turardi; bundan tashqari, u xorijiy davlatlardan kelgan elchilarning xonga atalgan yorliqlarini qabul qilib, xonga taqdim etardi. Uchinchi o`rinda parvonachi gurardi, uning vazifasi in`om olgan shaxslarga yorliqlar topshirish edi. To`rtinchi o`rinda dodho turardi, u xon nomiga yozilgan arizalarni qabul qilib, arizalar yuzasidan qabul qilgan qarorlar haqida arizadorga habar berardi.

Saroy amaldorlarining keying mansablari quyidagicha edi: ko`kaldosh-siyosiy politsiyani boshqaruvchi; katta inoq-qudratli o`zbek qabilalarining amirlaridan tayinlanadi; qushbegi-xon qarorgihining boshlig`I; katta mehtar, dasturxonchi va boshqalar.

Bulardan keyin to`pchi boshi, qutvol, eshokog`aboshi mironxo`r, shayxulislo, qozi qozi askar va hokazolar turardi. Sud va halq maorifi ruhoniylar qo`lida edi. Huquq masalalari shikoyat qilish tariqasida oliy din arbobi

shayxulisloomba borib hal qilinadi. Huquq maslalarida mutfiler maslahatchilik qilishardi, shariat qaroriga

Asoslangan ayrim masalalar yuzasidan fatvo berar edi, lekin fatvoni a`lam uzul-kesil tasdiqlardi.

G`arbiy Yevropada, ilk feodal davrida, shuningdek, knyazliklar Rossiyada bo`lgani singari, Buxoro feodal ma`muriyatining xarakterli xususiyati shundan iborat ediki, davlatni idora qilish vazifalari saroy xizmati vazifalari bilan aralashib ketgan edi. Bu vazifalar behisob mayda-chuyda saroy xodimlari shtatlarida ham xuddi shunday bir-biri bilan qo`shilib ketgan, bular asovullar (alohida topshiriqlarni bajaruvchi amaldorlar), mehtarlar, past tabaqa saroy hizmatkorlari, shutirlar (yugurdaklar) va boshqalar edi. Lekin XVII asrdayoq davlatga tegishli hamma yozish-chizish ishlarini o`z qo`llariga to`plab olgan ancha-muncha to`ralar paydo bo`ldi: bular har xil mahkama xodimlari, kotiblar, mirzalar, devonbegi qo`l ostida soliq ro`yxatlari, moliya hisobotlari tuzuvchi xon saroyidagi mol-mulkлага qarab turuvchi moliya xodimlari va boshqalar edi. Xonning o`ziga kotiblik qiluvchi munshini alohida ko`rsatib o`tish lozim, u odatda o`qimishli kishi bo`lib ba`zi paytlarda xonga atab mathiya, she`r to`qish, hatto, shohlik davrining xronikasini yozib chiqish vazifasi ham bajarardi. Xonlarning o`zlari yozish-chizishlarni diqqat bilan kuzatib borishardi. Xon kutubxonasini saqlab yurish uchun maxsus kutubxonachi tayinlanardi. Saroya munajjiimlar ham bo`lardi, ular yangi tug`ilgan shxzodalarning peshonasiga yozilganini bilish uchun yulduz ko`rishar, harbiy yyrishlar, yangi bino qurish va “baxtli soatlar” haqida folbinlik qilishardi. Nihoyat xon imoratlari ustidan doim nazorat qilib turadigan maxsus odam (muxandis) bo`lardi. Diniy marosimlarning bajo keltirilishi, o`lchov tarozi va bozor narxnavosi ustidan nazorat qilib turish vazifasi raisga (muxtasisiga) yuklangan bo`lardi. Bu vazifalarning hammasiga ko`proq saidlik unvoniga ega bo`lganlar, ya`ni haqiqatdan, ko`pincha nomiga Mhammad payg`ambar avlodidan bo`lganlar qo`yildi.

Biroq, markaziy idora usulining yo`lga qo`yilganligi xato fikrga olib bormasligi kerak. Bu usul asosan Temuriylar davrida meros qolgan, lekin unda o`zbek xonliklarida tarkib topgan haqiqiy shart-sharoitlarga qarab kattagina o`zgarishlar sodir bo`lgandi. Yuqori davlat lavozimlariga eng kuchli o`zbek qabilalarining bosliqlari tayinlanardi; bu lavozimlardan ba`zi birlari ayrim qabilalarning mulki bo`lib qolgandi. Bu hol mustaqil bo`lib olgan qabila amirlarining ta`sirini yanada kuchaytirib yuborardi.

Aslida mustaqil amloq (mulk)dan iborat bo`lgan va idora qilish uchun taxt vorisi yoki xon xonadonining eng mo`tabar a`zolariga topshirilgan Balxda (bunday hollarda ularga xon unvoni berilardi) idora aparati markaz aparati taxlitida tashkil qilinardi. Balx noibi idora ishlarida va uning urush olib borishlarida yordam berish

vazifasi yuklatilardi; otaliq yurtlari Balx viloyatiga kirgan o`zbek qabilalarining zodagoonaridan tayinlanardi. Bunday otaliq o`z qabilasiga suyanib, butunlay mustaqil mavqeni egallab olish, xon noibi, hatto, Buxoro xonining o`zini ham tan olmasligi mumkin edi.

Buxoro ma`muriy idorasining quyi aparati boshqa feodal davlatlardagi sistema singari tuzilgan edi; bu aparat, bir tomondan, keng qo`llamda darxon va in`om qilish hisobidan ishlab kelgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, davlat idora aparatining butun harajatlarini soliq to`laydigan aholi zimmasiga yuklash hisobidan ishlab keldi. Aholining natural majburiyatlarini bajarish ustidan nazorat qilib turish vazifasi arbob zimmasiga yuklanardi (buni Moskva elchilari shahar hokimi yoki Zemskiyy starosta bilan tenglashtirardilar). Arbob elchilarining shaharliklardan yem-xashak bilan ta`minlab, sug`orish ishlari va boshqalar ustidan nazorat qilib turardi. Viloyat va shaharlar tepasida xonning harbiy vasallari turardi. Ular ham ko`pincha mahalliy feodallar bilan aloqasi bo`lgan shaxslardan tayinlanardi. Buxoroda maxsus hokim-dorug`a bo`lardi, politsiya vazifasini esa mirshab bajarardi. Biroq bu davlat chinovliklarning idora usullari feodal in`omidan bir oz farq qilardi: Imomqulixon vaqtida Buxoro hokimiga, hatto, tamagirlik maqsadlarida shaharni talattirgan va odam o`ldirgan, degan ayb qo`yilgandi. Moliya sistemasiga butun “musulmonlar” Sharqida bo`lgani singari, xiroj yoki mol (yer solig`i-renta) asos qilib olingandi, xiroj yoki mol hosilning 1/5 gacha miqdorida olinardi yoki ushur, ya`ni hosilning o`ndan biri olinardi. Chorva molar va hunarmandchilik mahsulotidan chorva yoki tovarlar qiyamatining 1/40 hisobida zakon olinardi. Bu asosiy soliqlardan tashqari, juda ko`p har xil to`lov va majburiyatlarham bo`lgan, bular o`sha zamonalidagi hujatlarda ko`rsatib o`tilgan. Hokimlar soliq yig`uvchilar va turli xil amaldorlar (dorug`og`I, mirishkor, sadrona, naqibona, mirobona, kutvoli va hokazolar) hamda qo`shin ehtiyojlari uchun olinadigan yig`inlar (tagar, madadiy ulufa va boshqalar), bog` va mevazorlardan olinadigan pul soliqlari (ko`knor puli, sabzi puli va boshqalar) shular jumlasidandir.

Ma`lumotlar bu soliqlarning hammasi qaysi formada natura yoki pul formasida olingenini aniqlashga imkon bermaydi, lekin ba`zi bir manbalarda ko`rsatilgan ma`lumotlarga qaraganda XVI-XVII asrlarda ham pul, ham natura bilan aralash soliq olish tartibi bb`lgan. Ba`zi bir ishlab berish formalari, masalan, mehnat majburiyati tariqasida shahar qal`alarga devor olish va tuzatish kanal va ariqlar qazish kabi ishlar ham shunga kirgan, degan hulosa chiqarish mumkin. Har xil o`tkinchi elchilar va amaldorlarga tunash uchun joy, ot-arava va oziq-ovqat berishi (qo`nalg`a, boshqacha qilib aytganda “qo`ra qo`noq”) ham natural majburiyatga kitish lozim.

Yerni tanho qilib taqsimlab berishning keng rasm bo`lganligi, yirik feodallarni soliqdan tarxon qilishlar va har turda imtiyozlar berish, shuningdek, soliqdan va davlat majburiyatlaridan ozod qilingan mulk yer egaligining keng yoyilganligi xon tasarrufida bo`lgan davlat xazinasining ahvoliga juda yomon ta`sir qildi, chunki soliq jamg`armalarining katta qismi xon xazinasiga tushmasdan, feodallar bilan katta amaldorlarning qo`liga o`tib ketardi.

XVII asrda Moskva elchilarining so`zlariga qaraganda, davlat soliqlarining faqat bir qismi xon xazinasiga tushardi. Davlat chiqinlari faqat zarbxona daromadlari va savdo bojlari bilan qoplanardi. Pazuxinning so`zlariga qaraganda, ularning davlatlarida (Buxoro va Balxda) “podsholarning xazinasida” pul oz, chunki hamma qishloqlar harbiylarga va amaldorlarga in`om qilib berilgan va podsholarning har xil chiqinlari zarbxona va savdo bojlaridan olinardi. Yil oxirida esa chiqimlardan pul ortib qolmaydi. Ahvol shunday bo`lganidan keyin hukumat, hiroj va mulk soliqlarini su`iy yo`l bilan ooshirish va har xil natural soliqlar olish, bиринчи navbatda, savdogar va hunarmandlardan soliq olishga harakat qildi. Chunonchi, elchilar yem-hashakni arboblardan olishardi.“ уларда шу нарса рasm bo`lganki, -deb habar berishadi Moskva elchilari,-yem-hashakni savdogarlar beradilar... ba`zan yem-hashak o`rniga qishloqlardan g`alla, moy, zabzavot va ko`pincha go`sht oladilar...” Hamma hunardmadlar “har biri o`z hunari va didiga qarab” bayramlarda xonga o`zi ishlagan mahsulotlardan berib turishi lozim. Zarur bo`lib qolgan hollarda esa shahar hunarmand va kosiblariga do`kon boshiga qarab soliq olinardi.

Hamisha pulga muhtoj xonlarning moliya siyosatiga ko`pincha tamomila o`z boshimchalik hokum surardi.

XVII asrning ikkinchi yarmida, Supxonqulixon vaqtida hamma viloyatlarda aholidan har yili barot (aholidan muhlatidan oldin yig`ishga hokum beradigan, xonning alohida hujjati) bilan yeti baravar pul va natura soliq olish odat bo`lib qolgandi. Masalan, yozma qaror majburiyati yoki to`g`rirog`I hukumat tomonidan taqdim etilgan chek bilan bir qishloq 500 tanga (kumush bilan 100 so`m) to`lashi lozim bo`lsa, aslida undan 3500 tanga (kumush bilan 700 so`m) olishardi, bundan tashqari davlat kirimini hisobga oluvchi hamda hirojni to`plovchi arboblar uchun olinadigan pullarham o`n barobar ortiq qilib olinardi. Davlat yerlarida (mulki podishohiy va mulki shohlarda) yashovchi aholiga shunday miqdorda “mulkona” soliq solinardiki, dehqonlar bu mulklarni xohlagan odamga tekinga tashlab ketishgaham rozi bo`lishardi.

Bir zamonlar rivoj topgan konchilik ishlari tushkunlikga uchraganligi munosabati bilan asosiy valuta ma`dani hisoblangan kumushning kamligi sezilib turardi.Birtomondan, kumush tangalar kamligini to`ldirish uchun qisman qalbakilik bilan qo`shimcha daromad hosil qilish maqsadida XVIIasrda tangalarni

“buzush” juda keng qo’llanilardi. Tangaga mis yoki qalay qo’shilib bozordagi muomala narxida majburiy qiymad bilan yangi tangalar chiqarilardi. Shunday qilib, tanga zarb qilish xonlikdagi mehnatkashlar ommasini ekspluatatsiya qilish, aholidan qo’shimcha daromad chiqarib olish yo’llaridan biri edi. Xon xazinasining tobora kambag`allahib borishi yana shungaham ta`sir qildiki XVIIasrda shaharda xon hazinasi hisobidan binokorlik ishlari ancha kamayib ketdi, garchi XVIII asrning ikkichi yarmida biz Buxoroda O`rta Osiyo feodal me`morligini ya`ni Abdulaziz qurdirgan katta-katta, hashamatli binolarni namunalarini ko`ramiz. Lekin XVII asrda feodallarning ba`zi birlari shu qadar boy-badavlat edilarki, ular, masalan, Samarqanddagi Sher dor va Tillakori madrasalarini qurdirgan. Yallagtushbiy kabilar xonlarga nisbatan katta masshtabda hashamatli binolar qurdirishga qurbi yetar edi.

Ashtarxoniyalar davri tarixi haqidagi qisqacha hulosalarni yakunlar ekanmiz, shuni ta`kidlash lozimki, bu davrda feodallar o`rtasidagi o`zaro urushlar haddan ziyod keskinlashib ketdi. Bu davrda Markaziy Osiyo shaharlari va viloyatlari uchun tinimsiz kurashlar avj oldi. Buning natijasida ho`jalik hayot izdan chiqib, hayotdagi barja og`irliliklar oddiy mehnatkashlar boshiga tushdi.

XVIII asrning boshlarida (birinchi chorragida) yuqoridagi siyosiy voqealar hxonavayronlik, o`zaro urushlar Markaziy Osiyo hududida uchta mustaqil xonlikni paydo bo`lishi bilan yakunlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. “Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т. “Шарқ”. 1998.
2. И.А.Каримов. «Юксак маънавият - енгилмас куч». Тошкент. «Маънавият». 2008.
3. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova “O’zbekiston tarixi”, T.: “Iqtisod-moliya” 2006
4. Q.Usmonov, M.Sodiqov, N.Oblomurodov “O’zbekiston tarixi”, T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 2002
5. O’zbekiston tarixi (I qism), T.: “Universitet” 1997